

2023- yil yanvar-noyabr oylari uchun
dastlabki ma'lumot



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(62) 224-65-09



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **804,7 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **75,2 mln. AQSH** dollariga yoki **10,3 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **804,7** **+10,3 %**

(2022- y.: **729,5**)



Saldo

2023- y.: - **243,8** (2022 y.: - **268,4**)



Eksport

2023- y.: **280,4** **+21,6 %**

(2022- y.: **230,6**)



Tovarlar: **269,8**



Xizmatlar: **10,6**



Import

2023- y.: **524,3** **+5,1 %**

(2022- y.: **498,9**)













Tovarlar: **498,9**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi **280,4** mln. AQSH dollariga (**21,6** % ga ko‘paydi) va import hajmi **524,3** mln. AQSH dollariga (**5,1** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-243,8** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

<p>Rossiya Federatsiyasi</p> <p>TSA – 164,9</p> <p>Eksport: 86,4 Import: 78,5</p> <p> 20,5 %</p>	<p>Braziliya</p> <p>TSA – 151,5</p> <p>Eksport : 0,0 Import : 151,5</p> <p> 18,8 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 100,9</p> <p>Eksport : 10,1 Import : 90,8</p> <p> 12,5 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 78,1</p> <p>Eksport : 77,9 Import : 0,2</p> <p> 9,7 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 54,6</p> <p>Eksport : 11,7 Import : 42,9</p> <p> 6,8 %</p>
<p>Germaniya</p> <p>TSA – 36,2</p> <p>Eksport : 0,5 Import : 35,7</p> <p> 4,5 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 27,4</p> <p>Eksport : 27,1 Import : 0,3</p> <p> 3,4 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 27,4</p> <p>Eksport : 17,5 Import : 9,9</p> <p> 3,4 %</p>	<p>Belarus</p> <p>TSA – 21,1</p> <p>Eksport : 2,4 Import : 18,7</p> <p> 2,6 %</p>	<p>Litva</p> <p>TSA – 20,1</p> <p>Eksport : 1,1 Import : 19,0</p> <p> 2,5 %</p>

Xorazm viloyati jahonning **121** mamlakati bilan tashqi savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (**20,5** %), Braziliya (**18,8** %), XXR (**12,5** %), Pokiston (**9,7** %), Turkiya (**6,8** %), Germaniya (**4,5** %) va Qirg'iz Respublikasida (**3,4** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, va Afg'oniston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda qo'shni davlatlar bilan viloyatning TSAsi hajmi **2,8** foizga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)



Pokiston – 77,3



Qirg'iz Respublikasi – 26,9



Tojikiston – 13,1























Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **6** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Qolgan **14** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Rossiya Federatsiyasi	100,5	145,4	164,9
 <i>Eksport</i>	62,4	89,7	86,4
<i>Import</i>	38,1	55,7	78,5
Braziliya	0,0	175,7	151,5
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	175,7	151,5
XXR	114,0	99,6	100,9
 <i>Eksport</i>	22,3	9,5	10,1
<i>Import</i>	91,7	90,1	90,8
Pokiston	10,0	10,2	78,1
 <i>Eksport</i>	9,2	9,9	77,8
<i>Import</i>	0,8	0,3	0,3
Turkiya	88,2	107,0	54,6
 <i>Eksport</i>	27,5	23,7	11,6
<i>Import</i>	60,7	83,3	42,9
Germaniya	5,4	9,3	36,2
 <i>Eksport</i>	0,4	1,5	0,5
<i>Import</i>	5,0	7,8	35,7
Qirg'iz Respublikasi	36,3	29,5	27,4
 <i>Eksport</i>	36,1	28,7	27,1
<i>Import</i>	0,2	0,8	0,3
Qozog'iston	26,7	53,5	27,4
 <i>Eksport</i>	19,9	42,7	17,5
<i>Import</i>	6,8	10,8	9,9
Belarus	2,7	9,4	21,1
 <i>Eksport</i>	1,2	1,9	2,4
<i>Import</i>	1,5	7,5	18,7
Litva	3,8	12,0	20,1
 <i>Eksport</i>	0,3	0,5	1,1
<i>Import</i>	3,5	11,5	19,0

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Eron	8,7	8,7	19,6
	<i>Eksport</i>	4,7	2,7	10,5
	<i>Import</i>	4,0	6,0	9,1
	Tojikiston	4,0	4,4	13,1
	<i>Eksport</i>	3,5	4,1	13,1
	<i>Import</i>	0,5	0,3	0,0
	Turkmaniston	10,6	10,6	12,0
	<i>Eksport</i>	5,9	3,8	2,4
	<i>Import</i>	4,8	6,8	9,6
	Polsha	3,7	6,8	10,4
	<i>Eksport</i>	0,7	0,9	4,7
	<i>Import</i>	2,6	5,9	5,7
	Hindiston	0,8	12,6	10,1
	<i>Eksport</i>	0,2	0,3	1,4
	<i>Import</i>	0,6	12,3	8,7
	Yaponiya	0,3	0,4	6,1
	<i>Eksport</i>	0,2	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,1	0,4	6,1
	Shveysariya	0,4	1,7	5,4
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,4	1,7	5,4
	BAA	1,2	0,6	4,3
	<i>Eksport</i>	1,2	0,3	0,3
	<i>Import</i>	0,0	0,3	4,0
	Belgiya	0,2	0,7	4,0
	<i>Eksport</i>	0,0	0,2	0,0
	<i>Import</i>	0,2	0,5	4,0
	Finlyandiya	0,2	0,0	3,7
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,2	0,0	3,7



XORAZM VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-noyabr)*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	804,7	110,3	100,0
Urganch sh.	163,9	118,7	20,4
Xiva sh.	29,1	108,4	3,6
Bog'ot	45,0	120,4	5,6
Gurlan	30,5	173,3	3,8
Qo'shko'pir	30,0	154,6	3,7
Urganch	52,6	114,6	6,5
Hazorasp	49,6	148,6	6,2
Tuproqqal'a	192,0	96,5	23,9
Xonqa	53,6	119,5	6,7
Xiva	25,5	96,6	3,2
Shovot	54,7	94,7	6,8
Yangiariq	38,6	57,4	4,8
Yangibozor	38,3	2,6 m.	4,8

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Tuproqqal'a 192,0

Urganch sh. 163,9

Shovot 54,7

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Xiva 25,5


Xiva sh. 29,1

Qo'shko'pir 30,0

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqal'a tumani **23,9** % ulush bilan **192,0** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Xiva tumani **3,2** % ulush bilan **25,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **33,4** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning shu davriga nisbatan past ko'rsatkichni qayd etdi.




Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **13,7** %ga oshdi va jami TSA'dagi ulushi **66,6** % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, **268,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **150,6** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **117,9** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



XORAZM VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)


<p>Rossiya Federatsiyasi</p> <p>TSA – 164,9 Eksport – 86,4 Import – 78,5</p> 	<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 12,0 Eksport – 2,4 Import – 9,6</p> 
<p>Qirg'iz Respublikasi</p> <p>TSA – 27,4 Eksport – 27,1 Import – 0,3</p> 	<p>Ukraina</p> <p>TSA – 1,1 Eksport – 0,3 Import – 0,8</p> 
<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 27,4 Eksport – 17,5 Import – 9,9</p> 	<p>Ozarbayjon</p> <p>TSA – 1,1 Eksport – 1,0 Import – 0,0</p> 
<p>Belarus</p> <p>TSA – 21,1 Eksport – 2,4 Import – 18,7</p> 	<p>Moldova Respublikasi</p> <p>TSA – 0,3 Eksport – 0,3 Import – 0,1</p> 
<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 13,1 Eksport – 13,1 Import – 0,0</p> 	<p>Armaniston</p> <p>TSA – 0,05 Eksport – 0,05 Import – 0,0</p> 



Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushlari Rossiya (**61,4** %), Qirg'iz Respublikasi (**10,2** %) hamda Qozog'iston (**10,2** %) davlatlari bilan qayd etildi.

XORAZM VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Xorazm viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **242,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **133,8** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **108,2** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



XORAZM VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **177** taga yetdi va ular tomonidan **280,4** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **21,6** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	230,6	280,4	-	121,6	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	78,5	131,9	117,8	168,0	34,0	47,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	2,4	12,6 m.	1010,4 m.	0,0	0,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,5	4,5	59,8	82,2	2,4	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,5	2,9	5,9 m.	64,6	1,9	1,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,3	-	19,1 m.	-	0,6	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,9	1,8	90,3	2,1 m.	0,4	0,6
Sanoat tovarlari	99,7	96,4	95,4	96,7	43,2	34,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,2	0,4	51,2	2,2 m.	0,1	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	28,6	29,5	191,8	103,1	12,4	10,5
Xizmatlar	11,4	10,6	69,4	93,3	4,9	3,8

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **96,2 %**ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**47,0%**), sanoat tovarlari (**34,4 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**10,5 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	109584,0	160,7
Don mahsulotlari	11204,1	36,0 m.
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	222,7	37,7
Turli xil ovqatlar va preparatlar	152,2	39,1
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	133,8	13,3
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	50,6	166,1
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	6,7	7,1
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	2426,6	1009,8 m.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	1,5	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	3149,0	68,1
Hayvonot va o'simlik xom ashyosi	1040,9	11,2 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	232,5	30,0
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	122,9	-
Po'kak va yog'och mahsulotlari	1,9	4,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2897,3	64,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyoviy moddalar	561,7	86,1 m.
Bo'yoqlar va taninlar	453,1	120,8
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	221,0	3,2 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	155,7	131,7
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	143,4	102,0
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	116,8	5,1 m.
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	112,2	89,2
Organik kimyoviy vositalar	3,0	-


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik iplari, matolar va shunga o'xshash mahsulotlar	84279,9	96,7
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	11117,4	184,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan mahsulotlar	756,1	32,6
Boshqa metall buyumlar	205,9	5,0
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	24,2	72,2
Teri, boshqa charm buyumlar, mo'ynalar	8,2	40,2
Rangli metallar	4,7	-
Rezina buyumlar	2,6	2,9 m.
Quyqa temir va po'lat	2,3	194,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	157,0	3,0 m.
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	147,4	3,6 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	63,9	-
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	35,9	38,5 m.
Avtomobililar va ularning ehtiyot qismlari	25,7	24,4
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	6,2	-
Boshqa transport vositalari	2,5	-
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	1,3	-
Metallni qayta ishlash uskunolari	0,04	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim va kiyim aksessuarlari	23769,6	95,7
Oyoq kiyimlari	3643,3	3,3 m.
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	910,9	4,1 m.
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	529,8	44,0
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	413,8	39,5
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature	153,2	93,8
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	28,0	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunolari va optik mahsulotlar	9,3	37,6 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlarga **150,6** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **53,7** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkiya va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **87,1** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-noyabr, % da)





XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya Federatsiyasi	89,7	86,4	143,7	96,4	1	1
Pokiston	9,9	77,9	107,8	7,9 m.	5	2
Qirg'iziston	28,7	27,2	79,6	94,5	3	3
Qozog'iston	42,7	17,5	2,1 m.	41,1	2	4
Tojikiston	4,1	13,1	117,8	3,2 m.	7	5
Turkiya	23,7	11,6	86,3	49,0	4	6
Eron	2,7	10,5	58,0	3,9 m.	9	7
Xitoy	9,5	10,1	42,6	106,7	6	8
Polsha	0,9	4,7	130,3	5,1 m.	16	9
Gruziya	1,5	2,8	98,6	180,5	12	10
Belarus	1,9	2,4	155,5	126,8	10	11
Turkmaniston	3,8	2,4	65,2	61,8	8	12
Iroq	0,5	2,3	40,5	5,2 m.	20	13
Afg'oniston	1,7	1,4	99,8	85,8	11	14
Hindiston	0,3	1,4	125,0	4,5 m.	23	15
Vyetnam	1,4	1,1	107,6	79,2	14	16
Litva	0,5	1,1	160,7	2,2 m.	19	17
Ozarbayjon	0,7	1,0	59,9	130,3	18	18
AQSH	0,1	0,9	6,2	6,1 m.	27	19
Germaniya	1,5	0,5	3,7 m.	31,9	13	20



XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-noyabr)*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	280,4	121,6	100,0
Urganch sh.	27,8	103,1	9,9
Xiva sh.	13,9	117,2	4,9
Bog'ot	22,0	69,2	7,8
Gurlan	23,1	3,2 m.	8,2
Qo'shko'pir	7,7	65,7	2,8
Urganch	24,8	121,4	8,9
Hazorasp	26,3	156,6	9,4
Tuproqqal'a	15,7	186,8	5,6
Xonqa	32,6	130,0	11,6
Xiva	13,4	66,8	4,8
Shovot	25,9	108,6	9,2
Yangiariq	19,0	138,7	6,8
Yangibozor	26,6	2,2 m.	9,5

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Xonqa

32,6

Urganch sh.

27,8

Yangibozor

26,6

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Qo'shko'pir

7,7

Xiva

13,4

Xiva sh.

13,9

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Xonqa tumani **11,6** % bilan **32,6** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shko'pir tumani **2,8** % bilan **7,7** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-noyabr oylarida **107,6** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **25,0** foizga yoki **35,8** ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**57,8** %), Rossiya (**30,4** %), Qozog'iston (**7,4** %) hamda Eron (**1,2** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **118,3 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **54,7** % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **42,2** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-noyabr)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	Tonna (birlikda)	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	12060,7	68420,1	57,8
 Rossiya Federatsiyasi	53648,5	35985,6	30,4
 Qozog'iston	37610,6	8796,0	7,4
 Eron	922,8	1452,3	1,2
 Afg'oniston	660,1	1198,2	1,0
 Polsha	905,3	947,1	0,8
 Turkiya	172,9	334,3	0,3
 BAA	144,6	301,5	0,3
 Ukraina	325,3	207,5	0,2
 Turkmaniston	435,0	169,2	0,1
 Boshqa davlatlar	725,6	473,0	0,4

* qiymat ifodasidan




2023- yil yanvar-noyabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **57,8** %i), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan **90,1** foizga ko'p.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **10,6** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **3,8** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,7** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**44,5** %), moliyaviy xizmatlar (**23,3** %), transport (**17,4** %) telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**14,8** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



XORAZM VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi **524,3** mln. AQSH dollarini tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,1** % ga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**40,9** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**36,0** %) hamda sanoat tovarlari (**7,2** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **25,3** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **524,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	498,9	524,3	192,8	105,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	188,0	184,2	10,5 m.	98,0	37,7	35,1
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,2	158,2	186,4	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	35,9	36,9	143,8	102,9	7,2	7,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7,7	10,5	317,9	136,4	1,5	2,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,0	2,9	108,5	96,8	0,6	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	22,5	21,5	135,0	95,4	4,5	4,1
Sanoat tovarlari	33,1	38,2	186,1	115,5	6,6	7,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	186,4	215,8	181,0	115,7	37,4	41,2
Turli xil tayyor buyumlar	22,3	14,1	30,4	63,4	4,5	2,7



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-noyabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	166223,3	94,5
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	7156,6	192,9
Don va ularning mahsulotlari	5095,2	4,8 m.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	3257,2	83,8
Sabzavotlar va mevalar	990,0	3,3 m.
Tirik hayvonlar	643,9	47,3
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	568,4	107,8
Har xil ovqatlar va preparatlar	238,0	21,6
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	205,8	186,4.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Yog'och mahsulotlari	33439,0	106,3
To'qimachilik tolalari	2763,7	2,3 m.
Hayvonlar va o'simliklardan mahsulotlar	414,8	14,9
Tabiiy kauchuk	129,3	80,2
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	97,7	-
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	26,4	10,6
Qog'oz xamiri va makulatura	5,7	-
Metall rudalari va metall parchalari	0,1	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	9710,7	153,0
Ko'mir, koks va briketlar	779,4	58,0
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lari va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	2941,9	96,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	9268,4	125,8
O'g'itlar	3374,3	45,8
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2254,4	150,3
Bo'yoqlar va taninlar	1913,0	97,8
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1438,9	97,5
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	1091,8	197,3
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	951,0	163,0
Noorganik kimyoviy moddalar	863,8	64,0

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Quyma temir va po'lat	15865,2	2,3 m.
Yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	7441,8	178,0
Metall buyumlar	3998,2	38,2
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	3944,5	87,7
To'qimachilik iplari, matolar	3823,2	101,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	1852,7	73,4
Rezina buyumlar	1191,0	175,7
Rangli metallar	116,6	2,8 m.
Teri, charm mahsulotlari va mo'ynalar	1,2	0,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	134047,1	123,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	30926,8	130,7
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	24054,3	156,1
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	19050,2	125,0
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	5350,6	26,6
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	976,1	65,4
Metallni qayta ishlash mashinalari	722,0	57,3
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	425,8	54,4
Boshqa transport vositalari	208,2	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature	6529,0	38,0
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	4455,2	103,7
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	2180,1	4,7 m.
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matras tayanchlari, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	770,6	5,4 m.
Oyoq kiyimlari	122,5	111,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunalar, sarf materiallari va optik mahsulotlar	41,5	68,2
Kiyim va kiyim aksessuarlari	17,9	2,1 m.
Sayohat aksessuarlari va sumkalar	4,3	17,7

2023- yil yanvar-noyabr oylari natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlaridan import ulushi **22,5** % ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **39,4** %ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-noyabr oylarida Xorazm viloyati **53** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Braziliya, XXR, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Litva va Belarus) jami importning **83,4** foizini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-noyabr, %da)





XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Braziliya	175,7	151,5	-	86,2	1	1
XXR	90,1	90,8	98,2	100,7	2	2
Rossiya Federatsiyasi	55,7	78,5	146,4	140,9	4	3
Turkiya	83,3	42,9	137,2	51,6	3	4
Germaniya	7,8	35,7	156,9	4,6 m.	8	5
Litva	11,5	19,1	3,3 m.	166,1	6	6
Belarus	7,5	18,7	5,1 m.	2,5 m.	9	7
Qozog'iston	10,8	9,9	160,0	91,4	7	8
Turkmaniston	6,8	9,6	143,8	142,4	10	9
Eron	6,0	9,1	151,2	150,8	11	10
Hindiston	12,2	8,7	22,0 m.	70,9	5	11
Yaponiya	0,4	6,1	4,5 m.	14,1 m.	26	12
Polsha	5,8	5,6	2,3 m.	96,5	12	13
Shveytsariya	1,7	5,4	3,9 m.	3,1 m.	17	14
BAA	0,3	4,0	-	15,9 m.	31	15
Belgiya	0,6	4,0	2,8 m.	7,1 m.	24	16
Finlyandiya	0,0	3,7	0,1	-	55	17
Koreya Respublikasi	3,5	3,4	18,1	97,2	15	18
Gongkong	0,8	2,5	188,9	3,0 m.	21	19
Italiya	0,5	2,1	67,3	4,6 m.	25	20



XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-noyabr)

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	524,3	105,1	100,0
Urganch sh.	136,2	122,4	26,0
Xiva sh.	15,2	101,4	2,9
Bog'ot	23,0	4,2 m.	4,4
Gurlan	7,4	71,1	1,4
Qo'shko'pir	22,2	2,9 m.	4,2
Urganch	27,8	109,1	5,3
Hazorasp	23,4	140,6	4,5
Tuproqqal'a	176,3	92,5	33,6
Xonqa	20,9	106,1	4,0
Xiva	12,0	192,2	2,3
Shovot	28,8	84,9	5,5
Yangiariq	19,5	36,6	3,7
Yangibozor	11,6	3,6 m.	2,2

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Tuproqqal'a 176,3

Urganch sh. 136,2

Shovot 28,8

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Gurlan 7,4

Yangibozor 11,6

Xiva 12,0

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumani hissasiga to'g'ri kelib, **33,6 %** bilan **176,3** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulush esa Gurlan tumani hissasiga **1,4 %** bilan **7,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **215,8** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **15,7** %ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **41,2** %ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-noyabr)




2023- yil yanvar-noyabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **29,3** mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Xorazm viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **79,8** mln. AQSH dollari (**37,0** %), Turkiya - **30,3** mln. AQSH dollari (**14,0** %) va Germaniya — **30,0** mln. AQSH dollari (**13,9** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **38,2** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,5** % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **7,3** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR


(2023- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

17,6 mln. AQSH doll,
ulushi – 45,9 %



**Rossiya
Federatsiyasi**

4,5 mln. AQSH doll,
ulushi – 11,7 %



**Xitoy Xalq
Respublikasi**

2,9 mln. AQSH doll,
ulushi – 7,5 %



Turkiya

2,7 mln. AQSH doll,
ulushi – 6,9 %



Belarus

2,6 mln. AQSH doll,
ulushi – 6,9 %



Germaniya



Sanoat mahsulotlari importi asosan quyma temir va po'lat (**15,9** mln. AQSH dollari), yog'och va yog'ochdan bo'lgan buyumlar (**7,4** mln. AQSH dollari), metall buyumlar (**4,0** mln. AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz xamiri (**3,9** mln. AQSH dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (**3,8** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.